“Tilning oliy qadriyat sifatida shakllanishida “Davlat tili haqida”gi Qonunning o’rni" mavzusida matbuot anjumani o’tkazildi

Joriy yil 15-sentyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan “Tilning oliy qadriyat sifatida shakllanishida “Davlat tili haqida”gi Qonunning o’rni" mavzusida matbuot anjumani o’tkazildi.

Unda FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori Nizomiddin Mahmudov hamda tilshunos olimlar Durdona Xudoyberganova, Yorkinjon Odilov, Shuhrat Ko’chimovlar Institutda olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berdilar.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi “O’zbek tili va adabiyoti bo’yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga ilova qilingan chora-tadbirlar rejasida Institut ilmiy xodimlari 2020 – 2022 yillarda “Davlat tilida ish yuritish”, “Xalqaro terminelementlarning izohli-ko’rgazmali lug’ati”, “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug’ati”, “O’zbek tili sinonimlarining katta izohli lug’ati”, “O’zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug’ati”ini yaratishi belgilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda shu yil 24-iyunda “O’zbek tilining izohli lug’ati”ning yangi nashri taqdimoti o’tkazildi va lug’at jamoatchilik tomonidan intiq kutib olindi. Kuni kecha “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo’llanmasining 9-nashri taqdimoti bo’lib o’tdi. Shuningdek, “Xalqaro terminelementlarning izohli-ko’rgazmali lug’ati” ham tayyorlanib, nashriyotga topshirildi. Ayni vaqtda Institut tilshunoslari “O’zbek tilining izohli lug’ati”, “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo’llanmasining lotin yozuvidagi to’ldirilgan, takomillashtirilgan nashrini, lotin yozuviga asoslangan katta imlo lug’ati hamda ixcham o’quv lug’atini tayyorlanmoqdalar.